



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№6(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 284 sahifa,  
1-iyun, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
<b>Usmonova Muattar Bahadirjonovna</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni .....	14
<b>Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa</b>	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari .....	17
<b>Dilsora Shodmonova</b>	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях .....	24
<b>Истамова Нигора Азимжановна</b>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
<b>Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi</b>	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
<b>Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich</b>	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
<b>Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li</b>	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
<b>Artikov Xayrulla Baxtiyarovich</b>	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline .....	44
<b>Lola Mannobova</b>	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries .....	48
<b>Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları .....	51
<b>Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi</b>	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari .....	55
<b>Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi</b>	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni .....	59
<b>Abdunazarov Abdumutal Olimovich</b>	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari .....	64
<b>Alimova Gulrux Farhod qizi</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari .....	70
<b>Axtamova Mohinur O'tkir qizi</b>	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni .....	74
<b>Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'liqinova Muxlisaxon Jamshid qizi</b>	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida) .....	78
<b>G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi</b>	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi .....	82
<b>Hamraqulova Durdona Dilshod qizi</b>	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi .....	87
<b>Hikmatova Yulduz Nuritdinovna</b>	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari .....	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli .....	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida) .....	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish .....	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish .....	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari .....	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari .....	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar .....	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi .....	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari .....	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli .....	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari .....	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi .....	153
<i>Rahimova Sarvinov Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati .....	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish .....	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi .....	195
<i>Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna</i>	
Modern Teaching Methods in English Language Learning.....	199
<i>Sarvinoz Abdulhakimova</i>	
Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi .....	202
<i>Shahnoza Muhammadiyeva</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari .....	205
<i>Shopulatova Nasiba Umirovna</i>	
Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari.....	208
<i>Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid</i>	
Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida .....	211
<i>Temirov Murodjon Anvarovich</i>	
The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students.....	215
<i>Toshmamatova Marjona Olimjon kizi</i>	
Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik .....	220
<i>Toshpo'latova Mahina Farxod qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari .....	224
<i>Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi</i>	
Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations .....	228
<i>Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi</i>	
Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications.....	232
<i>Veronica Khatamova</i>	
Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi .....	236
<i>Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida .....	240
<i>Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova</i>	
Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish .....	246
<i>Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi</i>	
The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation.....	250
<i>Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.</i>	
Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan .....	254
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubaevna</i>	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish .....	257
<i>Xoldorova Mashxura G'ulomovna</i>	
Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari.....	260
<i>Xudaybergenova Zuxra Isakovna</i>	
Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari .....	263
<i>Yusupov Ma'mur Ma'rufovich</i>	
Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина.....	269
<i>Рахимова Шахзода Равшановна</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari .....	273
<i>Imamova Nasiba Xurramovna</i>	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	276
<a href="#">Xidirov Faxriddin Fozilovich</a>	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды .....	280
<a href="#">Рахмонова Нилуфар Уткир кизи</a>	

# O'ZBEK MILLIY ROMANCHILIGIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TALQIN (XAYRIDDIN SULTONNING "YALDO KECHASI" ROMANI MISOLIDA)

G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqatning badiiy haqiqatga aylantirilishidagi usul va yondashuvlar yozuvchi Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" nomli tarixiy romani asosida chuqur tahlil qilinadi. Asarda yoritilgan davr orqali o'zbek millatining boshidan kechirgan og'ir va murakkab siyosiy hayoti hamda ayni shu davrda millat kelajagi uchun jonini fido qilgan shaxslarning faoliyati ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** roman, tarixiy roman, sho'ro davri, jadidchilik harakati, "Yaldo kechasi", Otabek, Yodgorbek, Odilbek, Ozodbek, tarixiy haqiqat, badiiy talqin.

**Abstract:** This article provides an in-depth analysis of the methods and approaches used to transform historical truth into artistic truth in the Uzbek national novel, based on Khayriddin Sultan's historical novel "Yaldo Kechasi." Through the period depicted in the work, the difficult and complex political life experienced by the Uzbek nation is revealed, as well as the activities of individuals who sacrificed their lives for the future of the nation.

**Key words:** novel, historical novel, Soviet period, Jadid movement, "Yaldo Kechasi," Otabek, Yodgorbek, Odilbek, Ozodbek, historical truth, artistic interpretation.

**Аннотация:** В данной статье на основе исторического романа писателя Хайридина Султана "Ночь Ялдо" проводится глубокий анализ методов и подходов трансформации исторической правды в художественную правду в узбекском национальном романе. Через изображённый в произведении период раскрываются тяжёлая и сложная политическая жизнь узбекского народа, а также деятельность личностей, пожертвовавших своей жизнью ради будущего нации.

**Ключевые слова:** роман, исторический роман, советский период, джадидское движение, "Ночь Ялдо", Отабек, Ёдгорбек, Одилбек, Озодбек, историческая правда, художественная интерпретация.

## KIRISH

Badiiy adabiyot shaxslararo, avlodlararo va millatlararo muloqotning amalga oshishiga xizmat qiladi. Kitobxon badiiy asarni mutolaa qilish jarayonida unda yoritilgan davr va qahramonlar orqali bevosita tarix bilan yuzlashadi. Tarix nafaqat insoniyatning, balki butun dunyoning o'tmishini qamrab oluvchi murakkab jarayondir. Mazkur jarayonning butun yoki qisman bir bo'lagini o'zida mujassam etgan o'zbek adabiyotida yaratilgan tarixiy romanlar xalqimizning uzoq o'tmishi, ijtimoiy-siyosiy va madaniy turmush tarzi haqida so'zlovchi, tarixni qayta jonlantiruvchi muhim manba hisoblanadi.

O'zbek milliy romanchilik maktabiga Abdulla Qodiriy tomonidan asos solingan edi. Ilk roman sifatida e'tirof etilgan "O'tkan kunlar" romani o'zbek adabiyotining shoh asaridir. Romanda yozuvchi Abdulla Qodiriy millatimizning murakkab siyosiy hayotini Xudoyorxon zamoni misolida tasvirlaydi. Asar xotimasida bosh qahramon Otabekning ruslarga qarshi to'qnashuvli jangda halok bo'lgani, uning yolg'iz o'g'li Yodgorbek va uning ikki o'g'li haqida qisqacha ma'lumot beriladi. Mazkur romanning davomini yozish yozuvchiga nasib etmagan. Mana shu buyuk orzu bugun amalga oshirildi. Yozuvchi Xayriddin Sulton romanning ikkinchi kitobi sifatida "Yaldo kechasi" nomli romanini taqdim etdi.

Xayriddin Sulton bir qancha tarixiy asarlar muallifi hisoblanadi. Bundan tashqari, u tarixiy mavzudagi "Moziydan bir sahifa" (1991), "Mehrobdan chayon" (1998), "Ulug' amir va donna Maria" (2019) kinosenariylarining ham muallifidir. Tarixiy asarlari orasida Zahiriddin Muhammad Boburga bag'ishlangan "Yo'lbarsning tug'ilishi", "Oy botgan pallada", "Panoh", "Tavba", "Saodat sohili", "Boburning tushlari", "Boburiynoma" kabi asarlari alohida o'ringa ega.



Mavzuning dolzarbligi shundaki, millatimizning sha'ni va istiqboli uchun kurashgan ma'rifatparvar jadidlarimizning faoliyati bugungi kunga qadar chuqur o'rganilib kelinmoqda. Bunday tarixiy shaxslar yashagan davr tarixi esa o'zbek milliy romanchiligida endigina yoritilmoqda. Xayriddin Sultonning "O'tkan kunlar" romanining davomi sifatida yozgan "Yaldo kechasi" romani yurtimizning sho'ro davridagi hayoti va jadidlar harakati yoritilgan yangi asar hisoblanadi.

## MAVUZGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xayriddin Sulton asarlarining badiiy xususiyatlari, qahramonlar yaratish va qahramon tiliga alohida yondashish mahorati o'zbek adabiyotshunosligida keng o'rganilib kelinmoqda. Yozuvchi asarlarida tarixiylik va zamonaviylikni uyg'unlashtirishda yuksak mahorat egasi sifatida tanilgan ijodkor hisoblanadi.

"Yaldo kechasi" haqida muallif kitob mundarijasida shunday yozadi: "Turkistonning tuganmas qayg'usi, elning bedavo dardi, vatanparvarlik armoni, ozodlik va adolat, ma'rifatli jamiyat orzusi, mahrumiyat va mag'lubiyat alamlaridan so'zlardi bu sahifalar. Ular zulm va jaholat hukmron bo'lgan kechalarning nihoyasiz istibdodidan hasrat va faryod chekib hikoya qilar edi. Bu kitobni yozgan kishilar turfa tabiatli, g'aroyib qismat egalari edi. Ularning bosib o'tgan hayot yo'llarida, aql bovar etmas faoliyatida, zafar va fojialar ichida kechgan taqdirida yurtimizning so'nggi bir yarim asrlik iztirobli tarixi mujassam". Asarda Turkiston tarixining XIX asrning 60-yillaridan XX asrning 20-yillarigacha bo'lgan davri tarixiy hujjatlar asosida badiiy talqin vositasida yoritib berilgan. Asar kitobxonga go'yoki Qodiriy yozgandek, uning nomidan taqdim etiladi. Roman "O'tkan kunlar"ning tili va ruhiga sodiq hamda hurmat saqlangan holda davom ettirilgan. Aynan shu uslubning saqlab qolingani sababli, asar davomini boshqa bir ijodkor yozgan bo'lsa-da, kitobxonda "O'tkan kunlar"ni mutolaa qilayotgandek tasavvur uyg'otadi.

Asarning nomlanishi haqida so'z borganda, yaldo kechasi 21-dekabrda 22-dekabrda o'tar kecha bo'lib, eng uzun kecha sifatida e'tirof etiladi. Yozuvchi esa tom ma'noda millatimizning eng og'ir va uzoq davom etgan tarixiy sinovlarini, alamli kunlarini ana shu nom ostida ifodalaydi. Asarda bu qaro va uzun tunga ishora sifatida Muhammad Sharif Gulxaniyning:

*"Bu nechuk tunkim, oni tongi yo'q,  
Yo muazzinlarining bongi yo'q".*

misralari iqtibos tarzida keltirilgan.

Romanda dastlabki voqealar Kumushning o'limidan so'ng ota-onasidan ranjigan Otabekning ota uyini tark etib, Marg'ilonga ketishi bilan boshlanadi. Otabek savdo ishlarini davom ettiradi va Qo'qon xoni Xudoyorxonning xos vakiliga aylanadi. Xonlikda xonlar almashinuvi shu qadar tez bo'lganki, qisqa fursatda Xudoyorxon, Mallaxon, Shohmurodxon, yana Xudoyorxon, Sulton Sayyidxon va yana Xudoyorxon taxtga chiqadi. Ana shunday murakkab siyosiy davrda Rossiya imperiyasi O'rta Osiyoni bosib olish harakatlarini boshlab yuborgan edi. Otabekning to'g'riso'zligi va zukkoligiga ishongan Xudoyorxon unga maxfiy topshiriq berib, Dashti Qipchoqqa borib vaziyatni o'rganib kelish vazifasini yuklaydi.

Tarixdan ma'lumki, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyo hududini bosib olish harakati to'rt bosqichda amalga oshirilgan. Birinchi bosqich 1847-1865-yillarda amalga oshirilgan bo'lib, dastlabki bosqinchilik harakatlari Qo'qon xonligining shimoli-g'arbiy viloyatlari tomon yo'naltirilgan edi. Ruslarning Dashti Qipchoqqa yaqinlashib kelayotganidan tashvishga tushgan Otabek xon Sulton Sayyidxonga siyosiy vaziyatni tushuntirib maktub yo'llaydi, ammo bu samara bermaydi. Tarixiy hujjatlarga ko'ra, 1864-yil boshlarida Chernyayev boshchiligidagi chor qo'shinlari 4-iyunda Avliyootani zabt etadi. Romanda Otabek ruslar bilan bo'lgan Avliyoota jangida yurt himoyasi uchun qahramonlarcha halok bo'ladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonasining ziyarak, ilmi va yangilikka intiluvchi qahramoni Otabek yolg'iz o'g'li Yodgorbekning ilm olishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib beradi. Yodgorbek otasi va yaqin insonlarining vafoti sababli otasining yaqin do'sti Usta Alim vasiyiligidagi qoladi. U 16 yoshida ilm olish maqsadida Samarqandga borib, uch yil davomida Xoja Ahror Valiy madrasasida tahsil oladi. Aynan shu davrda Samarqandda "jadid" degan so'z paydo bo'lib, barcha ilm ahli tilida jaranglay boshlaydi. Romanning asosiy voqealari ham shu davrdan boshlanadi.

Jadidchilik tarixiga nazar tashlasak, ilk jadidchilik harakati XIX asrning 80-yillarida Qrimda I. Gaspirali tomonidan boshlangan. Taqiqlarga qaramasdan, "Vaqt", "Sho'ro", "Pesayi axbor", "Chehranamo" kabi gazetalar turli yo'llar bilan Samarqand madrasalariga kirib keladi va Yodgorbek ana shu gazetalarni yashirincha mutolaa qilib boradi. 1893-yilda Markaziy Osiyoda bo'lgan I. Gaspirali Buxoroda ham jadid maktabini ochishga Buxoro amiri Abdulahadxonni ko'ndiradi. Andijon, Qo'qon va Samarqandda dastlabki jadid maktablari ochiladi. Millat istiqboli uchun qayg'urgan jadidlarning asosiy maqsadi barcha huquqlardan mahrum etilgan oddiy xalqning savodini chiqarishdan iborat edi.

XIX asr oxiri - XX asrning 30-yillarigacha davom etgan bu harakat Turkiston o'lkasining ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynadi. Asarda Turkiston o'lkasida safarda bo'lgan I. Gaspiralinig o'lka haqidagi fikrlari ham keltirilgan. U Toshkentga qilgan safari taassurotlari haqida shunday deydi: Turkistonda sakkiz million musulmon xalqi bor va ular go'yo g'orda yashagandek hayron va sarson holda umr kechirmoqda. O'lkada choyxonalarda grammofonlar jaranglar, bozor maydonlarida sirk tomoshalari namoyish etilar edi. Ruslar kirib kelmoqda va o'troqlashmoqda. Faqat musulmon xalqi hali-hanuz Xudoyorxon va Nasrulloxon zamonida yashayotgandek hayot kechiradi, dunyoga ham o'sha davr ko'zi bilan qaraydi. Sakkiz millionlik xalq ichidan esa xalq istiqboli uchun qayg'uradigan sakkiz kishi ham topilmaganini ta'kidlaydi. "Tarjumon" gazetasida chop etilgan bunday maqolalarni o'qigan Yodgorbek xalq dardi bilan yashay boshlaydi.

Asardagi jadidlar obrazi. Muallif romanni adabiy mistifikatsiyadan foydalangan holda yozgan. Romandagi bosh qahramonlardan biri Yodgorbek va Nusratxon to'ra obrazlari orqali jadidchilik yetakchilaridan biri, ma'rifatparvar Is'hoqxon Ibratning faoliyati tasvirlangan. Muallifning romanda Is'hoqxon Ibrat siymosini va jadidlar faoliyatini boshqa obrazlar orqali katta mahorat bilan tasvirlashi, tarixni xronologik tarzda emas, balki badiiy talqin asosida yoritgani alohida tahsinga sazovordir. Yodgorbek Samarqanddan qaytgach, Farg'onada maktab ochgan Nusratxon to'ra bilan tanishadi. Aynan shu shaxs Yodgorbekka o'z uyida jadid maktabini ochishida maslakdosh bo'ladi. Asarda Nusratxon domlining maktab hovlisida katta bog' barpo etgani va unda o'quvchilar hordiq olishi tasvirlangan. Bog'dagi shiyponda esa o'quvchilarning behuda gul uzmasliklari uchun matoga yozilgan bir she'r ham keltiriladi:

*Uzmagil behuda gul, bog'bondin andesha qil,  
Ori-ori gul uzarsan, xoridin andesha qil.  
Kimki keldi bu chamanga, to gul uzmay qo'ymadi,  
Lek har vaqt gul uzarsan, xalq hushin pasha qil.*

Keltirilgan ushbu she'r muallifi aslida Is'hoqxon To'ra Ibrat hisoblanadi. Tarixdan ma'lumki, Is'hoqxon To'ra Ibrat faoliyati davomida xalq uchun katta istirohat bog'i tashkil etgan va aholi bu bog'ni 1960-yillarda ham "Is'hoqiya bog'i", "Gulbog'" deb eslagan. Bog'ning turli joylarida esa uning qalamiga mansub, romanda keltirilgan yuqoridagi she'rlar qadab qo'yilgan. Jadidlar bilan do'st tutingan Yodgorbek Toshkentdagi yangi usul mudarris-lari – Jamol Shoshiy, Hidoyatulloh Mavloniy, Mirzo Anvar qori, Zohir Rahimiy singari jadidlar davrasida bo'ladi. Muallif romanda nomlari o'zgartirilgan ushbu obrazlar orqali jadidlar safida bo'lgan millatdoshlarimizga ishora qiladi. "Gap majlislari"dan birida Yodgorbek Turkistonda dong'i chiqqan xo'jandlik Sodirxon hofiz (Sodirxon Hofiz Bobosharifov 1847-1931-yillarda yashab o'tgan, musiqaga oid 20 dan ortiq asar yaratgan) va Furqat bilan tanishadi. Romanda Furqatning "Turkiston viloyatining gazetisi"ga maqolalar yozib turgani va uning qalamiga mansub "Sayding qo'ya ber, sayyod" nomli mashhur musaddasi ham tilga olinadi. Bundan tashqari, Toshkentda jadidlar safida Qo'qon xoni Xudoyorxonning kenja o'g'li Fansurullohbek ham tilga olinadi. Tarixiy hujjatlarga ko'ra, Fansurullohbek (1872-1931) jadid maslakdoshi Munavvar qori bilan yaqin aloqada bo'lib, "Xurshid", "Osiyo", "Haqiqat" gazetalarida o'z maqolalari bilan ishtirok etgan. 1929-yilda Munavvar qori hibsga olingach, bir yildan so'ng u ham hibsga olinadi. 1931-yilda esa millat taraqqiyoti uchun kurashgan Munavvar qori otib tashlangach, Fansurullohbek ham shu yili ruhiy bosimlar ostida mahkumlikda vafot etadi. Millat hayotida zulmatni yoritgan sham kabi porlagan bunday ulug' siymolarimizning qabih yo'llar bilan yo'q qilingani o'tmishimizning og'riqli nuqtalaridan biridir.

Yodgorbek o'z uyida "Najot" nomli yangi maktab ochadi va oddiy xalq bolalarining bepul saboq olishiga imkon yaratadi. Maktabda diniy fanlardan tashqari zamon talabi uchun zarur bo'lgan dunyoviy fanlarni ham joriy qiladi. O'sha davr siyosiy hujjatlari faqat rus tilida yuritilgani bois, maktabda o'quvchilarga rus tilini o'rgatish zarur degan xulosaga keladi. Ruxsat olish uchun bir necha bor hukumatga murojaat qilsa-da, takror rad javobini oladi. Shuningdek, xufiyona tarzda "Najot" nomli gazeta ham tashkil qiladi. Turkiston musulmonlari uchun muqaddas sanalgan Usmon Mushafining o'lkadan olib ketilgani va bu muborak kitobni qaytarish uchun gazetada e'lon qilingan xalqqa murojaati sababli Yodgorbek tazyiq ostida qoladi. Rus hukumati manfaatlariga zid maqolalar chop ettirgani uchun 1906-yilda Yodgorbek va uning safdoshlari Sibirga badarg'a qilinadi hamda otib tashlanadi.

Yodgorbekdan keyin uning oilasi tang ahvolda qolganligi sababli katta o'g'li Ozodbek (1893-yilda tug'ilgan) davlat tasarrufidagi mehribonlik uyiga topshiriladi. Ikkinchi o'g'li Odilbek esa Nusratxon to'ra qaramog'ida voyaga yetadi. Ozodbek Yodgorbek o'g'li yetimxonada ruscha mafkura ruhida tarbiya topgan bo'lsa-da, ona xalqining manfaatlari uchun jon kuydiruvchi shaxs bo'lib yetishadi. U qizil askarlar safida xizmat qiladi. Bu davrda Lenin targ'ib etayotgan kommunistik firqa safiga sadoqat ko'rsatib, harbiylar qatoriga qo'shiladi. O'ta zukko bu qahramon murakkab davrda ruslarga qarshi kurashib, ularni yengishning iloji yo'qligini anglab yetadi. Shundan so'ng ruslar bilan bir safda turib, ular bilan murosa qilish va xalqning haq-huquqlarini himoya qilish zarurligini tushunadi. U otasi amalga oshira olmagan orzuni – Usmon Mushafining Turkiston o'lkasiga qaytarilishini amalga oshiradi.



Birinchi jahon urushining so'nggi yillarida Rossiya tasarrufidagi mustamlakalarda ocharchilik davri boshlanadi. Insoniyatni chorasiz qoldirgan bu jarayon Turkiston o'lkasini ham chetlab o'tmaydi. Yozuvchining ushbu tarixiy jarayonni arxiv hujjatlari asosida yoritgani kitobxonni chuqur ta'sirlantiradi. Ochlik azobidan kuniga 10-15 nafar aholi vakili jon taslim qilgan. Edilbo'yi hududlarida esa aholi ochlikdan aqldan ozib, qattiq yerni chaynagani, o'z bolalarini ham o'ldirib iste'mol qilishga majbur bo'lgani hamda o'liklarni qazib olib, pishirib yeyish holatlari kuzatilgan. Aqlga sig'mas bu jarayonlarni boshidan kechirgan xalqning tarixi insonni larzaga keltiradi. Jahon xotin-qizlarining ozodlik harakati tashkil etilgach, Turkistonda ham xotin-qizlar bayramini o'tkazish majburiy tarzda amalga oshiriladi. Romanda ayollarning paranji yechish davri ham yoritilgan. Shu munosabat bilan katta ommaviy yig'inda Hamza Hakimzoda Niyoziy so'zga chiqib, "O'zbek xotin-qizlariga" bag'ishlangan manzumasini o'qib beradi:

*Keldi ochilur chog'ing, o'zliging namoyon qil,  
 Parchalab kishanlarni har tomon parishon qil...*

Hakimzoda tomonidan tashkil etilgan teatr guruhi uning qalamiga mansub "Paranji sirlari" nomli sahna asarini ham namoyish etadi. Shundan so'ng mushoira boshlanadi. Ana shu mushoirada "Jo'shqin" taxallusi bilan ijod qiluvchi yosh shoir ham minbarga chiqib, yozgan she'ri o'qib beradi:

*"Nodon" deb tashlandi ko'p xotin-qizlar,  
 El ichra qoldirdi ko'ngilsiz izlar.  
 To'ldirdi yoshlarning qo'ynin "ko'k ko'zlar",  
 Bezdirdi yoshlarning ko'nglini "o'zlar".  
 Boyoqish xotin-qiz bo'tadek bo'zlar,  
 Qayg'urib, yig'laroq urib so'zlar:  
 "Nega bular uchun qarshi chora yo'q,  
 Yuraklarga tokay otilg'usi o'q?"*

Ammo shoir ushbu she'ri sababli o'sha kunning o'zidayoq qamoqqa olinadi. Millatimiz uchun adolat istab ijod qilgan qanchadan-qancha shoir va yozuvchilar qatag'on qilinganiga tarix guvohdir. "Bayroqni kim ko'taradi?.." deb nomlanuvchi romanning ushbu qismida Shermuhammadbek (o'zbek va turkman bosmachilarining qo'rboshi) tomonidan Farg'onada ruslarning jabr-zulmlariga qarshi olib borilgan milliy ozodlik kurashi tasvirlangan. Yodgorbekning ikkinchi o'g'li Odilbek Shermuhammadbek qo'rboshi bilan bir safda harakat qiladi. Ruslar bilan to'qnashuvlarda parokanda qilingan ushbu milliy ozodlik harakati uzoq davom etmaydi. Shermuhammadbek chorasizlikdan Afg'oniston tomonga ketishga majbur bo'ladi, biroq safdoshlari bu harakatni Odilbek boshchiligida davom ettiradilar. So'nggi to'qnashuvda yurt qahramoni Odilbek qo'lidagi bayroqni baland ko'targan holda jang maydonida halok bo'ladi.

Asar xotimasida Ozodbek ukasi Odilbekning ruslarga qarshi kurashda ishtirok etgani sababli hibsga olinadi. U, garchi dahsizligini isbotlash maqsadida hukumatga maktub yo'llasa-da, ishonib xizmat qilgan hukumati tomonidan afv etilmaydi. 1920-yilning yaldo kechasida xira yonib turgan elektr chiroqlari ostida qatlgohda Ozodbekka qarata otilgan o'q ovozi bilan birga uning bo'g'zidan: "Alvido, Turkiston!" degan nido otilib chiqadi. Shu tariqa millatning yana bir navqiron o'g'loni qatl qilinadi.

## XULOSA

Tarix o'tmish va bugunni bog'lab turuvchi ko'prikdir. Badiiy adabiyot kitobxonga avlodlararo muloqot vazifasini bajarar ekan, o'tmishni yorituvchi tarixiy romanlarning adabiyot olamidagi o'rni beqiyosdir. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romani orqali o'zbek adabiyotiga tarixiy roman janrini olib kirdi. Abdulla Qodiriy hayot yo'lining murakkabligi va serqirraligi bilan buyuk tarixga ega ulug' shaxsdir.

Bugun bu ulug' ijodkor asarining davomi sifatida ikkinchi kitobning mahoratli yozuvchi Xayriddin Sulton tomonidan taqdim etilishi adabiyotimizda katta kashfiyot sifatida qabul qilindi. Yozuvchi ushbu tarixiy romanni adabiy mistifikatsiyadan ustalik bilan foydalanib, Abdulla Qodiriy nomidan kitobxonga taqdim etdi. Millatimizning XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi og'riqli tarixi "Yaldo kechasi" asarida qaro tun timsolida tasvirlangan. Tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg'unligi, asar davri va ruhiga mos til hamda uslubdan foydalanilganligi muallifning yuksak iste'dodidan darak beradi. Roman orqali millatimiz sha'ni va istiqboli uchun kurashgan ma'rifatparvar jadidlarimizning hayot yo'li bilan tanishgan kitobxon bugungi tinch zamonda yashayotganiga shukrona keltirishi, shubhasiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jadidlar. Is'hoqxon To'ra Ibrat. Yoshlar nashriyot uyi. – T., 2022. – B. 174.
2. Sultonov X. Yaldo kechasi. – T.: "Xaybar-25", 2025. – B. 458.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T., 2018. – B. 484.
4. <https://baburid.uz>
5. <https://uz.wikipedia.org>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №6(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.